ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 430 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida... 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari... 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

Shaxs psixik taraqqiyotida ruhiy holat modeli mental resurs tizimining zaruriy asosi sifatida... 348
Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ tafakkurini o‘yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi (TRIZ va milliy xalq o‘yinlari misolida)... 353
Abdusattorova Umida Abdusamad qizi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan ta’limning imkoniyatlari... 359
Ergasheva Muslima Komiljon qizi

Skoliozi bor talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi: shaxslararo munosabatlar va emotsional holat xususiyatlari... 362
Nurullayev Abdurashid Ro‘zimboyevich

Imom Abu Homid G‘azzoliy ilmiy-ma’rifiy merosi asosida oliy ta’lim talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish... 366
Ochilov Yakub Saydulloyevich

Socio-Psychological Factors in Staff Management in Early Childhood Education... 371
Tursunova Shaxnoza Elmurodovna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari... 376
Xudoynazarova Feruza Ilxomovna

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi: yutuqlar, muammolar va istiqbollar... 380
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Дидактическая модель развития когнитивных учебных действий младших школьников на языковом, текстовом, интерпретационном и трансформационном уровнях усвоения понятия “имя существительное”... 384
Солохиддинова Фазилатхон Мухиддин кизи

Raqamli jamiyatda shaxs qadriyatlarining rivojlanishida metakognitiv jarayonlarning psixologik roli... 389
Raxmonova Zarifa Ne’matovna

“Maktab maslahatchisi”ning 6 vazifasi: ijtimoiy-pedagogik tahlil... 392
Jumanov Sherzod Saloyevich

4K modeli (kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kritik fikrlash)ning paydo bo‘lishi va pedagogik asoslari... 397
Raximova Shoira Adilbekovna

Methods for Increasing the Effectiveness of Professional Activities of Higher Education Professors and Teachers Using Digital Technologies... 401
Qosimov Jahongir Avlaqulovich

Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari... 406
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'limda talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ... 410
Mamatova Saodat Maxmudovna

Pedagogical Foundations of Developing Digital Culture in Future Teachers:
A Stage-By-Stage Model and Assessment Criteria ... 415
Urazova Surayyo Elmurod qizi

Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda
axborot texnologiyalarining o'rni ... 419
A. I. Raxmanov

Bo'lajak o'qituvchilarni xulq-atvordagi og'ishlarni korreksiyalashga tayyorlashning
suggestiv-pedagogik mexanizmlari ... 425
Shermatova Manzura Ikromjanovna

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI XODIMLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

UDK. 373.2.091:005.591.6

Xudoynazarova Feruza Ilxomovna
Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti
E-mail: Xudoynazarov_Feruzaa@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi mahalliy metodik faoliyat shakllari va xorijiy kasbiy rivojlanish yondashuvlarini qiyoslash asosida tashkilot sharoitiga mos metodik modelni taklif etishdan iborat.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kasbiy kompetensiya, uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion mexanizm, mentoring, kouching, aralash ta'lim, pedagogik refleksiya, inklyuziv ta'lim.

Abstract: The article presents a scientific and theoretical analysis of innovative mechanisms for the continuous development of the professional competencies of staff in preschool educational institutions. The aim of the study is to propose a methodological model adapted to the institutional context by comparing local forms of methodological practice with international approaches to professional development.

Key words: preschool education, professional competence, continuous professional development, innovative mechanism, mentoring, coaching, blended learning, pedagogical reflection, inclusive education.

Аннотация: В статье проводится научно-теоретический анализ инновационных механизмов непрерывного развития профессиональных компетенций работников организаций дошкольного образования. Цель исследования заключается в разработке методической модели, адаптированной к условиям дошкольной образовательной организации, на основе сравнительного анализа отечественных форм методической деятельности и зарубежных подходов к профессиональному развитию.

Ключевые слова: дошкольное образование, профессиональная компетентность, непрерывное профессиональное развитие, инновационный механизм, наставничество, коучинг, смешанное обучение, педагогическая рефлексия, инклюзивное образование.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim bolaning keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorgarligi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi va mustaqil faoliyat tajribasini egallashida muhim o'rin tutadi. Ushbu bosqichdagi ta'lim sifati o'quv dasturi va moddiy sharoit bilan bir qatorda, pedagogning bolalar bilan kundalik munosabatlarni qanday tashkil etishiga ham bog'liq. Shu sababli xodimlarning kasbiy rivojlanishi maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim sifati tarkibida pedagog va bola o'rtasidagi muloqot, bolaning fikrlashini rag'batlantirish, hissiy qo'llab-quvvatlash hamda faoliyatga jalb etish jarayonlariga alohida e'tibor qaratiladi.

OECD materiallarida kasbiy rivojlanish tadbirlarining pedagogik amaliyotga yaqin tashkil etilishi va individual qayta aloqa bilan ta'minlanishi muhimligi ko'rsatilgan [3; 4; 7]. Shuning uchun kasbiy rivojlanishni alohida o'quv tadbirlari yig'indisi sifatida emas, tashkilot faoliyatiga singdirilgan uzluksiz jarayon sifatida loyihalash maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning maqsadi – maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mahalliy va xorijiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularni uyg'unlashtiruvchi metodik modelni taklif etish.

Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Kasbiy kompetensiyaning maktabgacha ta'lim amaliyotiga xos tarkibiy qismlarini aniqlashtirish.
2. Mahalliy metodik faoliyat shakllari va xorijiy yondashuvlarning imkoniyatlarini taqqoslash.
3. Innovatsion mexanizmlarni joriy etish bosqichlarini ishlab chiqish.
4. Kasbiy rivojlanish natijalarini baholash mezonlarini taklif etish.

Maqola doirasida asosiy e'tibor tarbiyachi va metodistlarga qaratiladi. Rahbarlarning faoliyati esa ushbu xodimlar uchun kasbiy o'rganish sharoitlarini yaratish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy kompetensiya mazkur maqolada pedagogning bilim, amaliy ko'nikma, kasbiy qadriyat va refleksiv qobiliyatlarini muayyan pedagogik vaziyatda maqsadga muvofiq qo'llay olish imkoniyati sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuvda pedagogning nimani bilishi bilan birga, mavjud bilimdan qanday foydalanishi ham muhimdir. Mahalliy metodik asos sifatida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 2022-yildagi takomillashtirilgan nashri muhim manba hisoblanadi [1]. Mazkur dasturga tayangan holda kasbiy rivojlanish mazmunini bolaga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, rivojlantiruvchi muhit yaratish va pedagogik kuzatuv bilan bog'lash mumkin.

O'zbekistonda raqamli kasbiy o'rganishga oid tajriba sifatida UNICEF tomonidan yoritilgan Learning Passport tashabbusini ko'rsatish mumkin. Ushbu tashabbus maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun milliy dastur va rivojlanish standartlariga bog'langan kurslar, mashg'ulot rejalari hamda qo'shimcha o'quv materiallarini taqdim etishga yo'naltirilgan [2]. Bu tajriba raqamli resurslarni milliy ta'lim mazmuniga moslashtirish imkoniyatini ko'rsatadi.

Xorijiy tajribada tashkilotning o'zida amalga oshiriladigan kasbiy o'rganish shakllari muhim o'rin egallaydi. OECD hisobotlarida hamkasblar faoliyatini kuzatish, mentoring va kouching maktabgacha ta'lim xodimlarining kasbiy rivojlanish shakllari sifatida ko'rib chiqilgan [4]. Ularning ahamiyati o'rganish mazmunining real ish vaziyatlariga bog'lanishi bilan izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ish nazariy-tahliliy tadqiqot sifatida bajarildi. Unda yangi dala kuzatuvi, respondentlar so'rovi yoki nazorat va tajriba guruhlari ishtirokidagi sinov natijalari taqdim etilmaydi. Tahlil uchun maktabgacha ta'lim mazmuni, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, raqamli kompetensiya hamda pedagogik hujjatlashtirishga oid manbalar tanlandi.

Quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Mazmuniy tahlil:** manbalardagi kasbiy rivojlanish tamoyillari va mexanizmlarini ajratish.
2. **Qiyosiy tahlil:** mahalliy metodik shakllar va xorijiy yondashuvlarni maqsadi, tashkil etilishi va kutiladigan mahsuli bo'yicha taqqoslash.
3. **Pedagogik modellashtirish:** aniqlangan mexanizmlarni izchil bosqichlarga birlashtirish.
4. **Umumlashtirish:** kompetensiyalar va ularni baholash mezonlarini shakllantirish.

Tahlil birligi sifatida alohida texnologiya nomi emas, kasbiy o'rganish mexanizmi olindi. Mazkur tushuncha ehtiyoj, maqsad, ishtirokchilar, faoliyat shakli, qayta aloqa va baholash vositalarining o'zaro bog'langan tizimini anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy yo'nalishlari

Nazariy umumlashtirish asosida maktabgacha ta'lim pedagogining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi olti yo'nalish taklif etildi.

1-jadval: **Kasbiy kompetensiyalar va ularning amaliy ifodasi**

Kompetensiya yo'nalishi	Mazmuni	Kuzatiladigan amaliy belgi
Metodik	Faoliyatni maqsad, yosh xususiyatlari va rivojlanish ehtiyojlariga mos rejalashtirish	Rejada maqsad, faoliyat va kuzatuv mezonlari o'zaro bog'langan
Kommunikativ	Bola, ota-ona va hamkasblar bilan hurmatga asoslangan muloqot	Pedagog bolani tinglaydi, ochiq savollar beradi, kelishmovchilikni xolis muhokama qiladi

Inklyuziv	Faoliyat va muhitni bolalarning turli ehtiyojlariga moslashtirish	Bir vazifada ishtirok etishning turli usullari taklif qilinadi
Raqamli	Raqamli resurslarni pedagogik maqsad asosida tanlash va yaratish	Resursning maqsadi, yoshga mosligi va undan foydalanish zarurati asoslanadi
Kreativ va tadqiqotchilik	Ochiq yechimli vazifalar, tajriba va izlanishni tashkil etish	Bolalar taxmin qiladi, sinab ko'radi va yechimlarni taqqoslaydi
Refleksiv	O'z faoliyatini dalillar asosida tahlil qilish	Pedagog kuzatuv natijasiga ko'ra keyingi faoliyatni o'zgartiradi

Ushbu yo'nalishlar bir-biridan ajralgan holda rivojlanmaydi. Masalan, pedagog bolaning tajriba jarayonidagi qiyinchiligini kuzatib, topshiriqni moslashtirsa, bir vaqtning o'zida metodik, inklyuziv va refleksiv kompetensiyalarini namoyon etadi. Mahalliy va xorijiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili. Mahalliy amaliyot uchun tanish bo'lgan ustoz-shogird, ochiq mashg'ulot va metodik seminar shakllari kasbiy rivojlanish modelining tashkiliy tayanchi bo'lishi mumkin. Ularni rivojlantirishda kuzatuv mezonlarini aniqlashtirish, individual maqsad belgilash va keyingi natijani qayta ko'rib chiqish muhimdir.

2-jadval: **Kasbiy rivojlanish yondashuvlarini uyg'unlashtirish imkoniyatlari**

Yondashuv	Asosiy mexanizm	Mahalliy sharoitga moslashtirish	Hisobga olinadigan cheklov
Ustoz-shogird va mentoring	Tajriba almashish, maqsadli kuzatuv, maslahat	Mentor va pedagog uchun aniq rivojlanish maqsadini belgilash	Jarayon faqat hujjat to'ldirishga aylanib qolishi mumkin
Kouching	Savollar va qayta aloqa orqali pedagogning yechim topishi	Metodist bilan qisqa, muntazam refleksiv suhbatlar	Kouchning maxsus muloqot ko'nikmalari zarur
Ochiq mashg'ulot va hamkasblar kuzatuvi	Amaliyotni birgalikda o'rganish	Oldindan kelishilgan bitta mezon bo'yicha kuzatish	Kuzatuv jazolovchi nazorat sifatida qabul qilinishi mumkin
Aralash ta'lim	Mustaqil o'rganish va yuzma-yuz amaliyotni birlashtirish	Qisqa raqamli materialdan keyin ish joyidagi topshiriq	Internet va vaqt imkoniyatlari turlicha
Reggio Emilia tajribasi	Kuzatuv, pedagogik hujjatlashtirish va birgalikdagi talqin	Bolalar ishlari va kuzatuv qaydlari asosida metodik muhokama	Hujjatlashtirish uchun ortiqcha yuklama yuzaga kelishi mumkin
Kasbiy o'rganish hamjamiyati	Umumiy muammoni hamkorlikda o'rganish	Bir necha pedagogning kichik metodik guruhini tashkil etish	Muntazam vaqt va rahbariyat ko'magi talab etiladi

Qiyoslash shuni ko'rsatadiki, xorijiy yondashuvni to'liq ko'chirishdan ko'ra, uning ishlash tamoyilini mahalliy sharoitga moslashtirish muhim. Masalan, mentoringning qiymati uning nomida emas, balki pedagogning aniq qiyinchilik ustida muntazam yordam bilan ishlashidadir. Innovatsion mexanizmlarning mazmuni. Mentoring kasbiy tajribani maqsadli o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Mentor faoliyat namunasini ko'rsatadi, pedagog bilan birgalikda reja tuzadi va uni sinab ko'rish natijalarini muhokama qiladi. Masalan, bolalarga ochiq savollar berishda qiynalayotgan tarbiyachi uchun savol namunalari ishlab chiqilib, keyingi mashg'ulotda ularning qo'llanishi kuzatiladi. Aralash ta'lim nazariy tayyorgarlikni amaliy topshiriq bilan bog'laydi.

Pedagog qisqa materialni mustaqil o'rganadi, uni guruhda qo'llaydi va natijasini hamkasblari bilan tahlil qiladi. "To'ntarilgan sinf" formati shu jarayonning bir varianti bo'lib, metodik uchrashuvdan oldingi tayyorgarlik hisobiga uchrashuv vaqtini amaliy muhokamaga ajratishga xizmat qiladi.

Keys tahlili pedagogik qarorning asoslanganligini rivojlantiradi. Keysda muammo, vaziyat shartlari, bolaning ehtiyojlari, ishtirokchilar nuqtayi nazari va muqobil yechimlar ko'rib chiqiladi. Masalan, o'yinga qo'shilmayotgan bolaning xatti-harakatini darhol salbiy baholash o'rniga, faoliyatning tushunarliligi, muhit va tengdoshlar bilan munosabatlar tahlil qilinadi. Pedagogik hujjatlashtirish kuzatuvni metodik qarorga aylantirish vositasidir. Bola ishlari, qisqa qaydlar va faoliyat tavsiflari asosida uning qiziqishlari hamda qiyinchiliklari muhokama qilinadi. Foto yoki video qo'llanganda rozilik, maxfiylik va foydalanish maqsadi oldindan belgilanishi kerak.

STEAM va Reggio Emilia yondashuvlarini xodimlarning malaka oshirish formatlari bilan aynanlashtirmaslik lozim. Ular pedagog o'rganishi mumkin bo'lgan ta'limiy yondashuvlardir; mentoring, kouching va aralash ta'lim esa ushbu mazmunni o'zlashtirish mexanizmlari bo'la oladi. Masalan, pedagoglar oddiy ko'prik yasash faoliyatini birgalikda loyihalab, bolalarning taxmin qilish va sinash jarayonini kuzatish orqali o'z metodik mahoratini rivojlantirishi mumkin.

Kasbiy rivojlanishning taklif etilayotgan modeli

Tahlil asosida besh bosqichdan iborat siklik model taklif etiladi.

Birinchi bosqich – **diagnostika.** Pedagogning o‘zini baholashi, metodist kuzatuvi va amaliy materiallar tahlili orqali ehtiyoj aniqlanadi. Bir manbaga tayangan baho o‘rniga, bir nechta dalilni solishtirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bosqich – **individual rejalashtirish.** Pedagog uchun bitta yoki ikkita ustuvor maqsad tanlanadi. “Kasbiy mahoratni oshirish” kabi umumiy vazifa o‘rniga, “faoliyat davomida bolalarning fikrini kengaytiruvchi savollardan foydalanish” kabi kuzatiladigan maqsad belgilanadi.

Uchinchi bosqich – **amaliy o‘rganish.** Qisqa nazariy material, mentor ko‘magi, keys yoki mikromashg‘ulot orqali yangi usul o‘zlashtiriladi va kundalik faoliyatda sinab ko‘riladi.

To‘rtinchi bosqich – **kuzatuv va qayta aloqa.** Kelishilgan mezonlar bo‘yicha dalillar yig‘iladi. Muhokamada pedagogning shaxsiga baho berishdan ko‘ra, kuzatilgan harakat va uning vaziyatdagi ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Beshinchi bosqich – **baholash va qayta rejalashtirish.** Dastlabki va keyingi dalillar taqqoslanib, rivojlanish darajasi aniqlanadi. Natijaga qarab maqsad davom ettiriladi yoki yangi ehtiyoj tanlanadi.

Mahalliy ustoz-shogird, ochiq mashg‘ulot va metodik seminar shakllarini mentoring, kouching, hamkasblar faoliyatini kuzatish hamda aralash ta’lim mexanizmlari bilan boyitish imkoniyati mavjud. Bunda xorijiy tajriba milliy o‘quv mazmuni, tashkilot resurslari va pedagoglarning ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak.

XULOSA

Tadqiqotning nazariy natijasi sifatida diagnostika, individual rejalashtirish, amaliy o‘rganish, qayta aloqa va baholashni birlashtiruvchi model taklif etildi. Modelning muhim xususiyati kasbiy rivojlanishni tadbirlar soni orqali emas, balki pedagogik faoliyatdagi kuzatiladigan o‘zgarishlar orqali baholashga yo‘naltirilganidir. Taklif etilgan model va mezonlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik ishlarni rejalashtirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Ularning samaradorligi haqidagi yakuniy xulosa esa tegishli tartibda tashkil etilgan tajriba-sinov va empirik tahlil natijalariga tayanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022. UNICEF elektron manbasi: https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5686/file/Ilk%20Qadam%20Uzbek.pdf
2. UNICEF. Preschool Education Re-Imagined! – 15 April 2022. https://www.unicef.org/eca/stories/preschool-education-re-imagined
3. OECD. Providing Quality Early Childhood Education and Care: Results from the Starting Strong Survey 2018. – Paris: OECD Publishing, 2019. DOI: 10.1787/301005d1-en.
4. OECD. Building a High-Quality Early Childhood Education and Care Workforce: Further Results from the Starting Strong Survey 2018. – Paris: OECD Publishing, 2020. DOI: 10.1787/b90bba3d-en.
5. Reggio Children. Values: Reggio Emilia Approach. – Rasmiy elektron manba: https://www.reggiochildren.it/en/reggio-emilia-approach/valori-en/
6. European Commission, Joint Research Centre. DigCompEdu Framework. – Rasmiy elektron manba: https://joint-research-centre.ec.europa.eu/scientific-activities/key-competences-lifelong-learning/digcompedu/digcompedu-framework_en
7. OECD. Starting Strong VI: Supporting Meaningful Interactions in Early Childhood Education and Care. – Paris: OECD Publishing, 2021. DOI: 10.1787/f47a06ae-en.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.